

O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ma'mun universiteti iqtisodiyot kafedrası

PhD Niyozmetov Doniyor

Ma'mun universiteti 24/7 guruh talabasi


Saparmetova Sevara Komiljon qizi

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, jumladan, aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish hisoblanadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi respublikada ham zamonaviy bank xizmatlarini keng joriy qilish masalasi Markaziy bank va tijorat banklari zimmasida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Buning asosiy sababi aholining bank xizmatlarida foydalan olish imkoniyati 24/7 rejimida amalga oshirish imkoniyatining mavjudligidadir. Natijada, ham aholining bank xizmatlaridan sutkaning istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini bersa, tijorat banklari uchun qo'shimcha daromad manbaini yaratadi.

Tijorat banklari xizmatlarining miqdoriy tavsifi xizmatlar soni, ularning ko'lam va doirasi bilan belgilansa, bank xizmatlarining sifat tavsifi xizmatlar sifati, tezkorligi va aniq-manzilli amalga oshirilishi, bu xizmatlardan mijozlarning qanoatlanish darajasi bilan ifodalanadi. Tijorat banklari xizmatlarining miqdor va sifat tavsifi hamda uning samaradorligi ular tomonidan baholash sohasida olib borilayotgan siyosat bilan uzviy bog'liqdir.

Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni bankomat va infokiosklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Foydalanish sodda bo'lgan ushbu uskunalar bugungi kunda mijoz va kassir o'rtasidagi an'anaviy muomalaga chek qo'yib, o'ziga xos mini-bank ofisi vazifasini o'tamoqda. Hozirgi paytda bankomatlardan nafaqat naqd pul echib olish, xorijiy valyutani almashtirish, bank plastik kartalariga mablag' qo'yish, balki ular orqali tovar va xizmatlar bo'yicha turli to'lovlarni amalga oshirish mumkin. Shuni qayd etish o'rinliki, mijozlar

istalgan bankning bankomat va infokiosklaridan foydalana oladilar.



1-rasm. Respublika tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni dinamikasi (dona)¹


1-rasmdan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 2018 yil yanvar oyidan 2022 yil dekabr oyigacha ko'payib borgan. Ushbu davrda o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 20 379 taga, har yilda o'rtacha 4 076 taga oshib borgan. Ushbu tendensiya keyingi oylarda ham saqlanib tursa, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlarning hajmi ham oshadi.

Hozirgi kunda tijorat banklari aholiga qulaylik yaratish va zamonaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish maqsadida 24/7 rejimida, kechayu kunduz uzluksiz xizmat ko'rsatadigan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan bank xizmatlari markazlari tashkil qilinib, foydalanishga topshirib kelmoqda. Bunday markazlar zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bankomatlar, infokiosk, infomonitor va "Internet-banking" xizmatidan foydalanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga xizmat ko'rsatuvchi klaviaturali infokiosk qurilmalari bilan jihozlanmoqda. 24/7 rejimida ishlaydigan mazkur shahobchalarning ko'payishi bankomat va infokiosklar sonining oshishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz bank tizimining rivojlanishida albatta elektron to'lov tizimining

¹O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida www.cbu.uz

rivojlanishi muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan aholiga “Bank-mijoz” dasturi, mobil banking, internet banking, SMS banking va tashqi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi qurilmalardan ya'ni, bankomat, infokiosk va terminallar kabi masofadan boshqariluvchi xizmat turlari ko'rsatilib kelinmoqda. Ushbu xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni ham yildan-yilga ortmoqda.



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (1 yanvar holatiga)²

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda masofadan bank xizmatlarini qo'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2012 yilda 56 735 tani tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda 534 800 tani, 2018 yilga kelib 4 453 240 tani, 2021 yilda esa 14 571 094 tani va 2022 yilda 20 203 384 tani tashkil etgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining 2010 yil 23 oktyabrdagi 34/8-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risida”gi Nizomi tijorat banklarida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimi orqali bank mijozlari bankning aloqa kanallari orqali axborot almashinuvi ya'ni banklar masofadan bank xizmatlari taklif etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Natijada, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020

²O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida www.cbu.uz

yil 1 yanvar holatiga 10 153 458 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 1 yanvar holatiga 44 099 600 taga etganini ko'rishimiz mumkin (2.1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2024 yil 1 yanvar holatiga (donada)³

№	Bank nomi	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1.	Milliy bank	97 411	2 001 214	2 098 625
2.	O'zbekiston sanoat-qurilish banki	73 177	6 296 325	6 369 502
3.	Agrobank	201 760	5 878 174	6 079 934
4.	Ipoteka-bank	167 567	3 220 676	3 388 243
5.	Mikrokreditbank	69 672	1 232 520	1 302 192
6.	Xalq banki	120 118	4 587 680	4 707 798
7.	Garant bank	6 853	119 728	126 581
8.	Biznesni rivojlantirish banki	27 085	401 985	429 070
9.	Turonbank	48 473	530 093	578 566
10.	Hamkorbank	126 047	1 741 682	1 867 729
11.	Asaka bank	36 586	1 073 040	1 109 626
12.	Ipak Yo'li banki	61 938	2 353 516	2 415 454
13.	Ziraat bank Uzbekistan	4 552	63 298	67 850
14.	Trastbank	49 454	218 287	267 741
15.	Aloqabank	64 685	1 604 832	1 669 517
16.	KDB Bank O'zbekiston	1 317	48 065	49 382
17.	Soderot bank Toshkent	366	2 676	3 042
18.	Universal bank	12 749	158 810	171 559

³O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida www.cbu.uz

19.	Kapitalbank	35 323	1 296 654	1 331 977
20.	Octobank	2 703	67 753	70 456
21.	Davr-bank	26 088	228 620	254 708
22.	Invest Finance bank	17 731	416 290	434 021
23.	Asia Alliance bank	26 743	614 157	640 900
24.	Orient Finans bank	30 366	577 648	608 014
25.	Madad Invest bank	1 106	3 359	4 465
26.	AVO bank	109	564	673
27.	Poytaxt bank	1 114	11 223	12 337
28.	Tenge bank	2 592	660 435	663 027
29.	TBC bank	-	2 051 728	2 051 728
30.	ANOR bank	25 924	3 827 971	3 853 895
31.	UZUM bank	-	1 470 988	1 470 988
Jami		1 339 609	42 759 991	44 099 600

Ushbu o'tgan 5 yildan ortiqroq muddatda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 4 barobardan ko'proqqa, foiz hisobida 400 foizdan ko'proqqa ortgan. Ushbu xizmatlardan foydalanuvchilarning 96 foizdan ko'prog'i jismoniy shaxslar ekanligi, xizmatlar bozorida bank mijozlari internet-banking va "Bank-mijoz" xizmatlariga nisbatan mobil-banking va SMS banking xizmatini tanlashi sezilarli darajada bo'lmoqda. Banklar kesimida esa AT "Xalq banki", AT "Agrobank" AT "O'zsanoatqurilishbank" va AT "Ipotekabank" banklarining foydalanuvchilari jami foydalanuvchilarning 65 foizdan ortig'ini tashkil etishi, ushbu banklarning respublikamiz bo'yicha bank filiallari sonining ham ko'pligi bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining xizmatlari tobora kengayib, sifati yaxshilanib bormoqda, ular orasida yangi istiqbolli mijozlarni jalb qilish uchun raqobat sezilarli darajada kuchaydi. Banklar tomonidan keng ko'lamli xizmatlar ko'rsatilishi, bankning mijoz uchun ishlashi bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2010-yil 23-oktabrdagi 34/8-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizom.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-6096-sonli qarori "Bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish va moliyaviy inkluzivlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti: www.cbu.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti: www.stat.uz.
5. Karimov I.A. *O'zbekistonning bank tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi*. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021.
6. Nurmatov B., Sharipov Sh. *O'zbekiston bank tizimida masofaviy xizmat ko'rsatish texnologiyalari*. Toshkent: "Adolat", 2020.
7. Azizov R. *Innovatsion moliya va bank xizmatlari rivoji*. Toshkent: "Fan va taraqqiyot", 2019.
8. Ismoilova N. *Raqamli iqtisodiyotda elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish*. Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, 2021, №4.
9. Mamatqulov D. *O'zbekiston tijorat banklarida masofaviy xizmatlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari*. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki axborot byulleteni, 2022, №2.
10. Yusupov A. *Bank xizmatlarini 24/7 rejimida takomillashtirishning amaliy muammolari*. "Moliyaviy iqtisodiyot" jurnali, 2023, №3.
11. Niyozmetov, D. (2024). ACTIVITIES AND SPECIFICS OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 11, pp. 57-58).